Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 8-1+808
ORSID: 0000-0002-5204-5281

BUGUNGI BOLALAR SHE'RIYATINING POETIK XUSUSIYATLARI

Gulnoza Voxidjonovna Abdullayeva
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Farg'ona davlat universiteti
E-mail: gv.abdullayeva@pf.fdu.uz

Annotatsiya. Maqolada bugungi bolalar adabiyotida, xususan she'riyatida an'anaviylik, izdoshlik va o'ziga xoslik masalasi yoritilgan. Mumtoz an'analar ma'rifiy she'rlar: alifbo va raqamli she'rlarda o'z ifodasini topganligi aks etgan. Istiqlol davri bolalar she'riyatining o'ziga xosliklari nazariy jihatdan misollar asosida tasniflangan. Bolalar adabiyoti yuzasidan ilmiy izlanish olib borgan tadqiqotchilar fikrlari o'rganilgan, ularga munosabat bildirilgan. Adabiy an'ana va izdoshlik, o'ziga xoslik masalasi va ijodkorning poetik mahorati tasniflashtirilgan. Mavzu qiyosiy-tarixiy metod asosida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar. An'ana, izdoshlik, o'ziga xoslik, ma'rifiy she'rlar, poetik mazmun, T.Adashboyev, A.Akbar, D.Rajab, shakliy-mazmuniy yangilanish, vizual tamoyil.

POETIC CHARACTERISTICS OF CHILDREN'S POETRY TODAY

Annotation. The article covers the issue of traditionalism, followership and originality in today's children's literature, especially in poetry. Classical traditions are reflected in educational poems: alphabetic and numerical poems. Peculiarities of children's poetry of the period of independence are theoretically classified on the basis of examples. The opinions of researchers who conducted scientific research on children's literature were studied and their reactions were expressed. Literary tradition and followership, the question of originality and the poetic skill of the creator are classified. The theme is based on the comparative historical method.

Keywords. Tradition, followership, originality, educational poems, poetic content, T.Adashboyev, A.Akbar, D.Rajab, form-content renewal, visual principle.

ПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. В статье освещается проблема традиционализма, преемственность и своеобразия в современной детской литературе, особенно в поэзии. Классические традиции отражены в учебных стихотворениях: алфавитных и числовых стихотворениях. Теоретически на основе примеров классифицируются особенности детской поэзии периода независимости. Изучены мнения исследователей, проводивших научные исследования по детской литературе, и высказаны их реакции. Классифицируются литературная традиция и приверженность, вопрос оригинальности и поэтического мастерства творца. Тема исследована на основе сравнительно-исторического метода.

Ключевые слова. Традиция, преемственность, самобытность, просветительские стихи, поэтическое содержание, Т.Адашбоев, А.Акбар, Д.Раджаб, обновление формы-содержания, визуальный образ.

KIRISH. Bolalar adabiyotida ham an'anaviylik deganda janr, poetik obrazlar, vaznlar sistemasi, badiiy tasvir vositalari hamda an'anaviy poetik timsollar nazarda tutiladi. Jumladan, bolalar she'riyatida mumtoz an'analar ma'rifiy she'rlar, ya'ni alifbo, raqamli she'rlarda bir qadar o'z ifodasini topgan. Masalan, Munisning "Savodi ta'lim" asari alifboni o'rganish uchun yaratilgan va keyinchalik bolalar adabiyotida an'anaga aylangan, yangi avlod shoirlari esa shakliy mazmuniy jihatdan yangicha yondashgan. "Alifbo she'r" misolida R.Barakayev an'ana va o'ziga xoslik masalasiga to'xtalib o'tgan. Olim ushbu an'anani davom ettirgan ijodkorlarning she'rlarini tahlilga tortadi va "alifbo she'r" yaratish ijodiy musobaqaning bir turi ekanligini alohida ta'kidlaydi [1.36]. XX asrda Sulton Jo'raning "Harflar paradi", Shukur Sa'dullaning "Alifbe" she'rlari, Quddus Muhammadiyning "Harflar o'yini", Adham Rahmatning "Alifbe" asarlari bu an'anani davom ettirganini, T.Adashboyev Javonni Rabonining "Qaysar raqamlar" she'riga javoban yozilgan "Harflarning sarguzashti" ertak she'ri bilan yangi pog'onaga ko'targanini, D.Rajab ham alifbo she'rlar an'anasini "Alifbo: o'qi, yodla, yoz, bo'ya, bolajon" alifbo she'ri bilan boyitganini ta'kidlaydi. Keyingi davrda yaratilgan alifbo she'rlar tom ma'noda san'at asariga (so'z san'ati) aylandi. Bolalarning qiziqishlari, tafakkuri, sarguzashtga moyilligi namoyon bo'la boshladi, bu xususiyatlar ijodkorlarning o'ziga xos uslubining bir ko'rinishi bo'ldi. Shuningdek, R.Barakayev bolalar she'riyatidagi shakliy mazmuniy yangilanishlarni mumtoz she'riyatimizdagi shakliy va ma'naviy san'atlar bilan bog'laydi, muvashshah va ta'rix badiiy san'atini dalil sifatida keltiradi. Demak, muvashshah ismli she'rlar va joy nomlari aks etgan she'rlarga, ta'rix san'ati esa raqamli she'rlarga asos bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O'zbek bolalar adabiyotining yuzaga kelishidagi nazariy asoslar folklor namunalariga, mumtoz adabiyotga borib taqalsa-da, tom ma'nodagi bolalar adabiyoti, bolalar uchun maxsus adabiyot namunalari XX asr boshlarida yuzaga keldi va fan sifatida shakllandi, taraqqiyot bosqichiga chiqdi. Bu davrda A.Avloniy, M.Abdurashidxonov, M.Behbudiy, A.Fitrat, S.Aziziy, Tavallolarning darslik sifatida yaratilgan qiroat-o'quv kitoblari odob-axloq mavzusidagi didaktik asarlar bolalar kitobxonligining asosi bo'ldi. 30-40-yillardan boshlab bolalar uchun badiiy asarlar yaratila boshlandi. Bolalar uchun asarlar yuzaga kelishi bilan birga, ularning tadqiqi amalga oshirila boshlandi. Dastlab M.Qo'shjonov, S.Mamajonov, U.Normatov, B.Imomov, S.Irisxo'jayeva kabi tanqidchilarning ayrim adabiy-tanqidiy maqola va to'plamlarida bolalar adabiyoti muammolari xususida bahs yuritiladi. Aytish joizki, avvalo, bolalar adabiyotining tarbiyaviy masalalariga e'tibor qaratildi. Keyinroq ijobiy qahramon, satira va yumor, adreslilik va didaktika, xarakterlar, shakl va mazmun masalalari atroflicha tadqiq etildi.

Bolalar adabiyoti bo'yicha R.Barakayev ko'plab izlanishlar olib borgan va eng dolzarb mavzulardagi ilmiy tadqiqotlari bilan jamoatchilik e'tiborini qozongan. Olim o'zining "XX asr boshlari o'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi" mavzusidagi ilmiy ishida o'zbek bolalar adabiyoti, kitobxonligi qadim tarixga ega ekanligi, uning ildizlari xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqligi va Avloniy asarlarida bolalar adabiyotiga oid risolalar mavjudligini isbotlab berdi. Mumtoz adiblarimiz ijodida ham bolalar tarbiyasiga oid didaktik qarashlar singdirilgan asarlarni o'rgandi. Olim Alisher Navoiy ijodida ma'rifiylik, tarbiyaviylik, barkamol avlod tarbiyasi, shuningdek, uning asarlaridagi insonparvarlik g'oyalarini,

ma'rifiy-estetik xususiyatlarini ochib bergan va "Jonajonim she'riyat" nomli risolasida esa, 80-90 yillar bolalar adabiyotidagi ijodiy-uslubiy izlanishlarni tadqiq etgan, keyingi davr bolalar she'riyatidagi g'oyaviy-badiiy, poetik yangilanish jarayonlarini ko'rsatib bergan. Fikrimizcha, R.Barakayev tadqiqotlari asosan, o'zbek bolalar adabiyotining paydo bo'lish tarixi, uni davrlashtirish, shakllanishi, taraqqiyot tamoyillari va bugungi kunda bolalar adabiyotining o'rni, mavzu va g'oyasi, vazifasi kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Uning "Bolalar adabiyoti qachon maydonga kelgan?"[2.386-396] nomli maqolasida bolalar kitobxonligi, o'zbek bolalar adabiyotini davrlashtirish masalasi, alifbo she'rlarning yaratilishi haqida fikr yuritiladi. 80-yillarning ikkinchi yarmida erkinlik, erksevarlik tuyg'ulari ochiq-oydin namoyon bo'la boshladi. Bu davr o'zbek bolalar she'riyati zimmasiga istiqlolimizning kelajagini yaratishi kerak bo'lgan yosh avlod ma'naviyatiga mas'ul bo'lish vazifasi yuklatilgan. R.Barakayev bu davrda T.Adashboyev, S.Barnoyev, M.A'zam, A.Obidjon, R.Tolipov, Q.O'tayev, A.Ko'chimov, R.Nazar, H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva, S.Inoyatov, A.Akbar, D.Rajab, Z.Isomiddinov, O.To'xtashev kabi o'rta va yosh avlod namoyondalari o'zbek bolalar she'riyatiga yangi nafas, toza ruh olib kirganligini ta'kidlaydi. Demak, istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatida yosh ijodkorlarning asarlari alohida o'rin tutadi. Yaratilgan asarlar soni bilan emas, sifati bilan salmoqdorligi, madhiyabozlik, shiorbozlikdan holi ekanligi, shu bilan birga kitobxonni o'ylashga, mustaqil fikrlashga undashi bilan o'ziga xoslik kasb etadi va ajralib turadi. B.Ashurov "Tursunboy Adashboyevning poetik mahorati" monografiyasida shoirning poetik mahorati, lirik qahramon masalasi, tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlarning badiiyati, obrazlar galereyasi haqida fikr yuritadi. Shoirning yil fasllari va tabiat manzaralari tasviriga bag'ishlangan asarlaridagi turli badiiy san'atlarni mohirona qo'llashga asoslangan tasvir uslubi manzara mukammalligi va jonliligini oshiradi, yuksak badiiyatini ta'minlaydi, shoir tasvirlagan manzaraning yosh kitobxon ko'z o'ngida yorqin namoyon bo'lishiga olib kelganligini ta'kidlab o'tadi [3.135]. Fikrimizcha, tadqiqotchi an'ana va izdoshlik masalasidan ko'ra, shoirning o'ziga xos uslubiy mahoratini keng tadqiq qiladi. R.Barakayev va B.Ashurov hammualliflikda yaratgan "Tursunboy Adashboyevning fenomeniga bir nazar" [4.163-168] nomli monografiyasida shoirning peyzaj tasviriga bag'ishlangan bir qator she'rlarini tahlil etadilar, shu bilan birga, ijodkor she'rlarida an'anaviylik va individuallik, lirik qahramon obrazini yaratishdagi o'ziga xosliklar, badiiy san'atlarni qo'llash mahoratini tadqiq etadilar. Uning she'rlarida aks etgan yetakchi xususiyatlar: yuksak badiiyat, shakliy mukammallik, ifodada aniqlik va qisqalik izdoshlari she'rlariga ham o'tadi, D.Rajab va A.Akbarlarning uslubini shakllanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

D.Rajab "80-yillar o'zbek bolalar she'riyatida poetik mahoratning ayrim masalalari nomli nomzodlik ishida 80-yillar bolalar shoirlari A.Obidjon, S.Barnoyev, Q.O'tayev, H.Imomberdiyev, R.Nazar K.Turdiyeva, A.Akbar va Z.Isomiddinov kabi shoirlarning poetik tasvir mahoratini tadqiq etib, shunday deydi: "bolalar adabiyotining otaxon shoirlarini aslo kamsitmagan holda, shuni e'tirof etish kerakki, bu yangi avlod shoirlari voqelikka estetik munosabatning yangiligi bilangina emas, o'z konsepsiyalarini badiiy ifoda etish, binobarin, poetik tasvir chizishdagi o'ziga xos mahoratlari bilan ajralib turadi" [5.18]. Tadqiqotchi izdoshlik masalasiga to'xtalmasada, shoirning o'ziga xos poetik mahoratiga e'tibor qaratadi. Darhaqiqat, har bir ijodkorning o'z konsepsiyasi mavjud, ya'ni ular poetik tasvir chizishda, obrazlar galereyasida, shakl va

mazmunda, so‘z qo‘llash mahoratida namoyon bo‘ladi.

K.Turdiyeva nomzodlik ishida o‘zbek bolalar poeziyasida ma’naviyat masalasini tadqiq etadi. 80-yillarda bolalar she’riyatida ma’naviyatning o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini T.Adashboyev, A.Obidjon, M.Rahmon kabi ijodkorlarning labaratoriyasiga murojaat qilib, tahlil etadi va ma’naviyat masalalarining xalq pedagogikasiga xos bo‘lgan to‘rtta xususiyat: ishontirish, o‘git, nasihat, ibrat ko‘rsatish, qoralash va rag‘batlantirish kabilarni namoyon bo‘lishini aytib, folklor an’analari bilan bog‘laydi va tahlillar asosida badiiy g‘oyadagi an’anaviylik bo‘yicha muayyan xulosalar beradi [6.158]. 80-90 yillar she’riy ertaklar misolida ham folklordagi ma’naviy-ma’rifiy jihatlarni muqoyasa qilib, folklorga xos an’analar she’riy shakl tufayli kuchaytirilgan tarzda bolalar shoirlari tomonidan namoyon bo‘lganini tadqiq etadi. Folklorga mansub bo‘lgan ertaklarning an’anaviy mazmunini shakliy jihatdan she’riy qolipga solib, o‘ziga xos tarzda yondashganligini aytadi, lekin bu holni “ko‘chirish” atamasi bilan izohlashni ma’qul ko‘radi. Bizningcha, aynan ko‘chirish o‘zini oqlamaydi, balki ijodkor an’anaga individual yondashadi. N.Safarovaning bolalar folklorining xos xususiyatlariga to‘xtaladi. “O‘zbek bolalar o‘yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari”[7.4] nomli nomzodlik ishida o‘yinlar bolalarda burch va mas’uliyatni tarbiyalashi, ularda haqiqiy ong shakllanishiga zamin hozirlashi, shuningdek, o‘yinlar go‘yo turmush darsligi sifatida namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Bolalar tanqidchiligi yuzasidan izlanishlar olib borgan S.Matchonov “Bolalar adabiyoti: san’atmi yo tarbiya?”[8.334] nomli maqolasida bolalar adabiyotini tarbiyaviy mohiyatini inkor qilmagan holda, so‘z san’ati sifatidagi ulug‘vor vazifasi haqida so‘z yuritadi. Istiqlol davri bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtaladi. Shartli ravishda jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq publitsistik ruh, bolalarning fe’l-atvoridagi nojoiz xislatlarning tanqidiga doir hajviy-yumoristik ruh, dunyo muammolarini, “odam va olam sirlarini”, tabiat va jamiyat bilan bog‘liq jumboqlarni anglashga doir falsafiy ruh kabi ustuvor yo‘nalishlarga ajratadi. Ushbu tasnifga o‘rganishlar natijasida o‘ziga xoslik masalasi asosida bolalar she’riyati misolida quyidagi tamoyillarni qo‘shimcha qilamiz: 1. Ma’rifatparvarlik bilan sug‘orilgan didaktik tamoyil. M.A’zam, K.Turdiyeva, A.Akbar, D.Rajab she’rlari. 2. Kreativlikka undovchi, ruhlantiruvchi ijodkorona tamoyil: K.Turdiyeva, A.Akbar, D.Rajab, O.To‘xtash she’rlari. 3. Bolalarning psixologiyasi, undagi evrilishlarini aks ettiruvchi tamoyil: T.Adashboyev, A.Obidjon, H.Imonberdiyev, N.Ostonov, A.Akbar, D.Rajablarning she’rlari. 4. Gnostik (bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari) hissiyotlar aks etgan tamoyil: T. Adashboyev, A.Akbar, D.Rajablarning savol she’rlari. 5. Geometrik shakl va rasmlar aks etgan vizual tamoyil: A.Akbar va D.Rajablarning ijodi misol bo‘ladi. Tahlildan anglashiladiki, ma’lum davrda har bir ijodkorning uslubida yetakchi xususiyat mavjud bo‘ladi.

D.Yuldasheva “O‘zbek bolalariga xos og‘zaki va yozma matnlarning antroposentrik tadqiqi”[9.40] nomli monogrfiyasida bolalarga xos matnlarning yaratilishiga ko‘ra to‘rt tamoyilga ajratadi. Matnda gnostik hissiyotlar ifodasi tamoyili va matnning vizual-ko‘rgazmali tamoyili kabilarni keltirib, ilmiy-nazariy jihatdan asoslaydi. Biz ham yuqorida bolalar she’riyatidagi o‘ziga xosliklarni tamoyillarga ajratganimizda, aynan, gnostik hissiyotlar va vizual tamoylni T.Adashboyev, A.Akbar va D.Rajab ijodi misolida tasnifladik. Shuningdek, S.Matchonov an’ana masalasiga to‘xtalganda, T.Adashboyev Q.Muhammadiy va Q.Hikmatlarning an’analarini davom ettirganini ta’kidlasa, A.Obidjonning

"Bulbulning cho'pchaklari" to'plamidan o'rin olgan ertaklarini G.X.Andersen va Sh.Perrolarning ijodiy ta'siri bilan bog'laydi.

Tadqiqotchi G.Jo'rayeva "O'zbek bolalar she'riyatida hajviy obraz yaratish mahorati"[10.87] nomli dissertatsiya ishida realistik hajviy obraz yaratish usullari, bolalarga do'q-po'pisa, quruq pand nasihatdan ko'ra hajviy asar, hajviy obraz orqali kulgi asosida ulardagi illatlarni fosh qilishning ta'siri kuchliroq bo'lishini aytib, hajviy obrazlar yaratish an'anasining tadriji va unda uslubiy mahorat masalalariga doir xulosalar beradi. Tadqiqotdagi tahlillarda dissertant ko'proq shakliy jihatlarga e'tibor qaratadi, ayrim holatda hajviylik pafosi yetarli yoritilmay qolgan o'rinlar uchraydi.

Ijodkor borki, o'zidan oldin o'tgan yuksak badiiy saviyaga ega salaflardan ta'sirlanadi, ularning ayrim g'oyalarini o'z mahorati darajasida qayta ishlaydi – takrorlaydi. Umumadabiyot singari bolalar she'riyati maydonga kelishi bilan ustoz-shogirdlik, izdoshlik an'anasi ham yuzaga keldi. Shoir S.Barnoyev "Tursunboy Adashboyev Qudrat Hikmatdan, avvalo, qisqalikni, ravonlikni, she'rning samimiy yozilishini, fikr butunligini, chaqmoqdek chaqilgan qofiya, she'riy yakun, ichki holatni o'rgandi. Ammo ustozining takrori bo'lib qolmadi, taqlid qilmadi"[12.12], – deya ta'kidlaydi.

Istiqlol yillarida adabiyotga e'tibor yanada kuchaydi, ijod ahliga keng e'tibor berildi. Bu holatni bolalar adabiyotida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, o'zbek bolalar she'riyati va nasrining eng sara namunalari jamlanib, ikki jildli "Bolalar adabiyoti antologiyasi", rus tilida bir jildli o'zbek bolalar she'riyati antologiyasi hamda M.Jumaboyev tomonidan "O'zbek va chet el bolalar adabiyoti" va shu muallif tomonidan bir qator darslik-majmualarning chop etilishi, ayniqsa, O.Safarov, R.Barakayev, B.Jamilovalar tomonidan yaratilgan "Bolalar adabiyoti" darsligi ushbu fanning taraqqiyotida muhim manba bo'ldi. Bu haqida R.Barakayev quyidagi fikrlarni keltiradi: "Har uchala antologiya qamrab olingan davr, saralangan asarlar badiiy asarlar nuqtayi nazaridan ham, mavzular rang barangligi jihatdan ham, o'zbek bolalar adabiyoti she'riyati va nasrini bugungi yosh kitobxonlarga tanishtirishi va bolalar adabiyotimizning bir asrdan ortiqroq vaqt mobaynidagi jarayonni ko'rsatishga xizmat qilishi bilan ham yosh kitobxonlarimizga munosib tuhfa bo'ldi"[13.4-son]. Shu bilan birga R.Barakayevning "Jonajonim she'riyat", Z.Ibrohimovaning "Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari", "Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar", A.Rasulovning "O'zlik sari yo'l", Q.Qahramonovning "Bolalikka oshufta ko'ngil", D.Rajab va G.Jo'rayevalarning "Mahorat marralari" kabi kitob, qo'llanma, risola va adabiy portretlari ham mustaqillik yillari o'zbek bolalar adabiyoti, xususan, she'riyati tadqiqi yuzasidan ahamiyatga molikdir. Bu tadqiqotlarda o'tgan asrning 80-yillaridagi o'zbek bolalar she'riyatining xos xususiyatlari, yosh qalamkashlar bu davr bolalar she'riyati badiiyatini yanada rivojlantirgani, mavzular ko'lami, janriy takomili, shakliy-mazmuniy yangilanishlar aks eta boshlagani, T.Adashboyev, A.Obidjon, H.Imonberdiyev, D.Rajab, A.Akbar kabi ijodkorlarning poetik mahorati yoritildi. A.Obidjon, Qambar Ota adabiy portretlari yaratildi. Istiqlol davri she'riyatidagi poetik yangilanishlar ham bir qadar o'z ifodasini topdi. N.To'xtayeva S.Matchonov, R.Barakayevlarning tadqiqotlariga tayanib, istiqol davri bolalar adabiyoti, xususan, she'riyatining yangilanish jarayonlariga quyidagi manbalar: 1) xalq og'zaki ijodi; 2) o'zbek mumtoz adabiyoti; 3) XX asr adabiyoti; 4) jahon bolalar adabiyoti; 5) istiqlol davrining erkin plyuralistik tafakkuri zamin bo'lganini aytadi [14.15]. Tadqiqotchi "quyidagi to'rt manba zamin bo'lgan", – deydi, lekin yuqorida

keltirganimizdek beshta manbani sanab o‘tadi.

T.Adashboyev mustaqilligimizning dastlabki yillarida yurtimizdagi bolalar uchun asarlar yaratgan barcha ijodkorlarni birlashtirdi, o‘ziga xos adabiy muhit yaratdi va uni shakllantirdi. Ushbu muhitning yetuk izdoshi A.Akbar ham o‘z ustozlari va jahonning yetuk bolalar ijodkorlari Korney Chukovskiy, Agniya Barto, Zaxoder Boris, Yunna Moreslarning asarlarini o‘qib, tarjima qilib o‘z poetik mahoratini shakllantirdi. Shoir ijodining bir uchi topqirlikka borib taqalsa-da, she’riyatning badiiy-estetik xususiyatlarini ham nazardan chetda qoldirmaydi.

Olima N.Xazaratqulova tojik bolalar adabiyotida Ubayd Rajab she’rlarining poetikasi haqida so‘z yuritib: “Ubayd Rajab she’rlarining an’ana va badiiy yangilik asoslari bolalar she’riyatining mazmuni va shakllarini belgilab beradi”[15.6], – deb ta’kidlab o‘tadi. A.Akbar, D.Rajablar ham bolalar she’riyatidagi mavjud an’analarni izdoshi sifatida individual uslubni yarata oldi. She’rlarining janr xususiyatlaridan biri soddaligi va ohangdorligi, his-tuyg‘ularni ifoda etishda bolalarcha samimiylik, qisqalik va aniqlikka intilish, she’riy san’atlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish, to‘q qofiyalardan foydalanishda yaqqol namoyon bo‘ldi.

Q.Qahramonov “bolalar uchun mo‘ljallangan asarlar bolalar yoshiga xos tarzda poetik obrazning haqqoniy, samimiy, hodisalarning mohiyatini tushunarli tasvirlash zarur” [16.4], – deb to‘g‘ri ta’kidlagan. Bolalar adabiyotining oldiga qo‘yilgan bunday talab har doim ham dolzarb sanaladi. Bolalar uchun yozilgan asar sodda, ixcham bo‘lsagina ularni o‘ziga jalb qila oladi. A.Akbar va D.Rajablarning innovatsion uslubi, ijodidagi so‘z qo‘llash mahorati, shaklda ixchamlik, mavzular ko‘lamining kengligi bilan bolalar she’riyatida alohida ahamiyatga ega. Bolalar adabiyotida shakliy-mazmuniy yangilanishlar 80-yillarning so‘ngida yanada yuksaldi. Jumladan, A.Akbar va D.Rajablarning ijodi ayni shu davrda rivojlandi. Ular ma’lum davr mobaynida bir qolipga aylangan nasihatbozlik, shiorbozlik, quruq bayon uslubidan voz kechib, adabiyotni didaktik funksiyasini unutmagan holda, bolalarning ruhiy olami, o‘y-fikrlari, sho‘xliklari aks etgan, ma’rifiy jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan shakliy-mazmuniy yangilanishlar asosida she’rlar yaratdi. Yangilangan poetik mazmun, uning badiiy-estetik doirasining kengligi, tematikasining rang-barangligi, bolalar she’riyatini bir pog‘ona ko‘tardi. She’rlariga etik (odob-axloq, insoniylik, yaxshilik), estetik (go‘zallik), gnoseologik (bilish, aql-zakovat, ma’rifat) jihatlarni singdira oldi. Badiiy adabiyot so‘z san’ati ekan, ijodkorning poetik mahoratini belgilashda so‘z qo‘llash mahorati uning badiiy-estetik funksiyasi ham muhim ahamiyatga egadir.

Bu yetakchi xususiyatlar ijodkorning o‘ziga xos poetik mahoratini namoyon qildi, ijodda individ roli kuchaydi. O‘ziga xoslik – ijodkorning o‘zigagina tegishli bo‘lgan dunyoqarashi, asarlarining asosiy leytmotivini tashkil etuvchi takrorlanmas g‘oyaviy-badiiy xususiyatlar, tasvirlash, ifodalash usullaridir. Demak, o‘rganishlar asosida, adabiy an’ana va izdoshlik, o‘ziga xoslik masalasini quyidagicha: a) adabiy an’ana va izdoshlik bo‘yicha tadqiqotlar (umumadabiyot misolida); b) bolalar adabiyoti misolida an’ana va izdoshlikni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar kabi guruhlarga ajratishimiz mumkin.

Ijodkorning iste’dodi, mahorati, ma’naviy saviyasi uning individual uslubini belgilab beradi. A. Akbar va D.Rajablarning o‘ziga xos uslubi bolalar she’riyatiga shakliy-mazmuniy jihatdan yangicha yondashuvi, so‘z va jumlalarning – nutqining, tasvir uslubining originalligidadir. Poetik yangilanishlar bolani kreativlikka, mantiqiy mushohada yuritishga, olam va odam mohiyatini anglashga undaydi. Ijodkor uslubi individual xususiyat bo‘lib,

obrazli tasvirlashda, lirik qahramonda, kitobxonni ishontirish, jalb qilishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoirlar poetik mahoratdagi mushtarakliklar bilan emas, balki bir-birlaridan farq qiluvchi xususiyatlari bilan qiziqarlidir. Shunday ekan, izdoshlik va o‘ziga xoslik konsepsiyasi metodologik asosini ijodkor uslubi tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, ijodkorning – shoirning o‘ziga xos uslubi: 1) so‘z va jumlalarni yosh kitobxonga mos tarzda ifodalashda; 2) shakliy-mazmuniy yangilanishlarda; 3) lirik qahramon va obrazlar galereyasida; 4) badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda; 5) she’riy janr va shakllarga murojaatida; 6) kitobxonga badiiy-estetik ta’sirida namoyon bo‘ladi.

Umumadabiyotdagi an’ana, vorisiylik, izdoshlik va novatorlik borasidagi ishlarning amalga oshirilishi, bolalar adabiyotida ham izdoshlik va o‘ziga xoslik konsepsiyasi, novatorlik masalasining metodologik asosini o‘rganilishiga turtki bo‘ldi. A.Akbar va D.Rajab an’anaviylikka tayanib, hayvonot va nabotot dunyosini tasvirlashda individual mahorat bilan ulardagi biologik holatni insonlarga xos bo‘lgan xislat va fazilatga mengzab aks ettirdi. Ularning uslubiga xos obrazlilik, lirik qahramon va obrazlar talqini, hajmda qisqalik, shakliy-mazmuniy yangilikka intilish T.Adashboyevning uslubiga hamohang. Shu bilan birga xalq og‘zaki ijodining ta’siri, ya’ni maqol, matal, ibratli so‘zlardan, jonlantirish badiiy san’atidan o‘rinli foydalanish an’ana bag‘ridagi yangilik sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR.

1. Баракаев Р. Бугунги ўзбек болалар шеъриятида бадиий тасвир маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. 2017. № 4. – Б.36.

2. Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти қачон майдонга келган // Ўзбек адабий танқиди. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2011. – Б.386-396.

3. Ашуров Б. Турсунбой Адашбоевнинг поэтик маҳорати. – Тошкент: Академнашр, 2009. – Б.135.

4. Баракаев Р., Ашуров Б. Турсунбой Адашбоев феноменига бир назар. – Тошкент: Академнашр, 2014. – Б.163-168.

5. Ражабов Д. 80-йиллар ўзбек болалар шеъриятида поэтик маҳоратнинг айрим масалалари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1995. – Б.18.

6. Турдиева К. Ҳозирги ўзбек болалар шеъриятида маънавият масалалари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1994. – Б.158

7. Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклорининг жанрий табиати, генезиси ва бадиий хусусиятлари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2005. – Б.4

8. Матчонов С. Болалар адабиёти: санъатми ё тарбия? // Ўзбек адабий танқиди. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2011. – Б.334.

9. Юлдашева Д. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Фарғона, 2022. – Б.40.

10. Жўраева Г.А. Ўзбек болалар шеъриятида ҳажвий образ яратиш маҳорати (80-90 йилларнинг материали асосида): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2010. В.15.

11. Барноев С. Турсунбой Адашбоев ижодига чизгилар / Беғуборлик олами. – Тошкент: Туркистон, 1998. – Б.12.

12. Баракаев Р. Болалар адабиётимиз зарварақлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2008. 4 апрель

13. Тўхтаева Н. Истиқлол даври ўзбек болалар шеъриятининг етакчи хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2019. – Б.15.

14. Хазраткулова Н. Поэтика детской поэзии Убайда Ражаба: Канд. филол. наук... дисс. – Душанбе, 2017.– Б.6.

15. Кахраманов К. Рол литературной критики в развитии реалистических принципов в узбекской советской детской литературе. Автореф. кан. филол. наук. – Тошкент: 1988. – Б.4.

16. G Abdullaeva. Iusses of artistic and literary influense of fairy-tale poems EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed Journal, 459-461, 2020